

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
QARSHI FILIALI**

KOMPYUTER INJINIRINGI FAKULTETI

**AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
kafedrası**

**«Mirmiron maxallasida tadbirkorlikni rivojlantirishni integratsion tizimini
dinamik web saytni yaratish»**

mavzusida

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi

Imzo

Yu. Ergasheva

Rahbar

Imzo

L. Xudoyorov

**“Himoyaga ruxsat etildi”
“Axborot texnologiyalari”
kafedrası mudiri _____
I.f.d. X.S. Muxitdinov
_____» _____ 2015y**

**Himoya uchun DAKga yuborildi:
“Kompyuter injiniringi”
fakulteti dekani _____
S.B.Davronov
“ _____» _____ 2015y**

Qarshi – 2015

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
QARSHI FILIALI**

**KOMPYUTER INJINIRINGI
fakulteti**

“ Informatika va axborot texnologiyalari ” yunalishi

«Tasdiqlayman»

_____ kaf. mudiri

i.f.d. X.S. Muxitdinov

« _____ » _____ 2015y

Bitiruv malakaviy ishi buyicha

TOPSHIRIQ

Talaba Ergasheva Yulduz

1. Malakaviy ish mavzusi: Mirmiron maxallasida tadbirkorlikni rivojlantirishni integratsion tizimini dinamik web saytini yaratish.

2. TATU Karshi filialining № _____ buyrug'i bilan _____ da tasdiqlangan

3. Malakaviy ishni topshirish muddati _____ 2015y _____

4. Malakaviy ish uchun ma'lumotlar: *Mirmiron maxallasi ma'lumotlari, Mirmiron maxallasidagi tadbirkorlikning rivojlanishi, veb sayt yaratish Internet materiallari, telekommunikatsiya o'quv loyihalariga oid o'quv materiallari, axborot kommunikatsiyadan foydalanishdagi xavfsizlik texnikasiga oid o'quv va elektron adabiyotlar.*

5. Xisobiy izoh qismining mazmuni (ishlab chikilishi lozim bulgan savollar ruyxati): *Mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, veb sayt yaratish to'g'risida umumiy tushunchalar, tashkil etish texnologiyasi va saytning sifati, veb saxifalarda foydalanilgan teglar. Hayot faoliyat xavfsizligi. Xulosa*

6. Grafik materiallar. Slaydlar: Yaratilgan web sayt saxifalari, maxallada tadbirkorlikni rivojlantirishni integratsion tizimini dinamik web sayti, (maslahatlar, video fayllar, audio fayllar, kitoblar), slaydlar

7. Malakaviy ish bo'yicha maslahatchilar:

№	Bo'lim nomi	Maslahatchi	Imzo, sana	
			Topshiriq berilgan sana	Maslahatchi imzosi
1	Texnologik va dasturiy qism	A.K.Muhammadiev		
2	Hayot faoliyati havfsizligi	Raximov O.D.		

8. Malakaviy ishni bajarilishi bo'yicha kalendar grafik

№	Malikakiy ishning bo'limlari	Malakaviy ishning hajmi, bet	Umumiy hajmga nisbatan, %	Bajarilganligi to'g'risida belgi	Izox
	Kirish				
	Loyihaning dolzarbligi, maqsad-vazifalari, ishning o'quv-uslubiy va amaliy ahamiyati				
1.	Web sayt yaratishda dasturlar va HTML teglari				
1.1.	Web sayt yaratishda foydalaniladigan dasturlarning imkoniyatlari				
1.2.	Web sayt yaratishda HTML teglaridan foydalanish				
2	PHP va WordPressdan foydalanib web sayt yaratish				
2.1.	Web saytning imkoniyatlarini oshirishda PHP tilining o'rni.				
2.2.	WordPress dasturiy platformasini o'rnatish				
3	Mirmiron maxallasida tadbirkorlikni rivojlantirishni integratsion tizimini dinamik veb saytini yaratish.				
3.1	Mirmiron maxallasida tadbirkorlikni rivojlantirishni integratsion tizimi veb				
3.2	Saytni yaratishda foydalanilgan dastur kodlari.				
	Hayot faoliyat xavfsizligi				
4.	Xulosa				
	<i>Jami:</i>				

Malakaviy ish rahbari: _____ L. Xudoyorov

Topshiriq olingan kun: _____

Talaba: _____ Yu.Ergasheva

Annotatsiya

Mazkur bitiruv malakaviy ishda Mirmiron maxallasida tadbirkorlikni rivojlantirishni integratsion tizimini dinamik web sayti yaratilgan. Web saytni yaratish uchun WordPress dasturiy platformasidan va PHP tilidan foydalanilgan.

Аннотация (рус тилида)

Аннотация (инглиз тилида)

MUNDARIJA

	Kirish	
	Loyihaning dolzarbligi, maqsad-vazifalari, ishning o'quv-uslubiy va amaliy ahamiyati	
I.	Web sayt yaratishda dasturlar va HTML teglari	
1.1.	Web sayt yaratishda foydalaniladigan dasturlarning imkoniyatlari	
1.2.	Web sayt yaratishda HTML teglaridan foydalanish	
II	PHP va WordPressdan foydalanib web sayt yaratish	
2.1.	Web saytning imkoniyatlarini oshirishda PHP tilining o'rni.	
2.2.	WordPress dasturiy platformasini o'rnatish	
III.	Mirmiron maxallasida tadbirkorlikni rivojlantirishni integratsion tizimini dinamik web saytini yaratish.	
3.1.	Mirmiron maxallasida tadbirkorlikni rivojlantirishni integratsion tizimi web saytining mantiqiy tuzilishi.	
3.2.	Saytni yaratishda foydalanilgan dastur kodlari.	
IV.	Hayot faoliyat xavfsizligi	
	Xulosa	
	Adabiyotlar	

KIRISH

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari tizimida mahalla faoliyatini izchil rivojlantirish, uning oʻrni va rolini, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash masalalariga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Buning samarasida, jamiyatimizda barqarorlik, ahillik, hamjihatlik va oʻzaro mehr-muruvvat muhiti qaror topmoqda.

Bugun yurtimizda oʻn mingga yaqin mahalla faoliyat koʻrsataymoqda. Aholini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish, yoshlar bandligini taʼminlash, ularni ona Vatanga muhabbat, milliy anʼana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashda mahallalarning oʻrni va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan konsepsiyada mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari koʻlamini kengaytirish, jamoatchilik nazoratini olib borishga oid dolzarb vazifalar belgilangan.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2002- yil 30-maydagi “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot- kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ni joriy etish toʻgʻrisida”gi Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 6-iyundagi “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori, qarorga ilova qilingan “Kompyuterlashtirishni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning 2002-2010 yillarga moʻljallangan Davlat dasturi”, 2005-yil 8-iyuldagi «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida» qarori qabul qilindi. Mazkur qarorlarning ijrosini taʼminlash boʻyicha ishlab chiqilgan dasturlar doirasida Respublika oliy oʻquv yurtlarida axborot texnologiyalarini taʼlim jarayonida qoʻllashni yangi usul va vositalar yordamida tashkil etish, masofaviy oʻqitish va kompyuterlashtirilgan anjumanlar oʻtkazish tizimini ishlab chiqish, elektron darsliklar yaratish va ularni oʻquv-tarbiya jarayonida qoʻllashga qaratilgan tadbirlar, yangi pedagogik va

axborot texnologiyalari asosida talabalarni o'qitishni jadallashtirish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi kunda mahallalarda xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mirmiron maxallasida tadbirkorlikning rivojlantirishini urganib chiqish va Mirmiron maxallasida tadbirkorlikni rivojlantirishni integratsion tizimini dinamik veb saytni yaratish muhim xisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Mahallalar hududida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan yoki endi ish boshlagan tadbirkorliklar haqida ma'lumot beruvchi web sayt yaratish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti sifatida: Mirmiron mahallasi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish qismidan, 3 ta bobdan, xulosa qismidan, Hayot faoliyat xavfsizligi, foydalanilgan va o'rganilgan adabiyotlar ro'yxatidan, foydalanilgan internet manzillaridan tashkil topgan. Kirish qismida bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi, ishning maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati, tadqiqot predmeti. I-bobda Mirmiron mahallasida tadbirkorlik faoliyati bo'yicha ma'lumot beruvchi veb saytni yaratish haqida ma'lumot berilgan. II-bobda saytni yaratishda foydalanilgan dasturiy platformalar haqida ma'lumotlar berilgan. III-bobda Mirmiron maxallasida tadbirkorlikni rivojlantirishni integratsion tizimi web saytining mantiqiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

I BOB. Web sayt yaratishda dasturlar va HTML teglari

1.1. Web sayt yaratishda foydalaniladigan dasturlarning imkoniyatlari

Web texnologiyaning ma'nosi, dasturiy ta'minotni ishlab chiqaruvchilar uchun ham, oddiy foydalanuvchilar uchun ham Web-texnologiya birinchi navbatda integratsion texnologiya ekanligi bilan ifodalanadi. Turli xil axborot manbalari va ularning turli tiplarini qanday qilib integratsiyalashga misol keltirish qiyin. Foydalanuvchi ma'lumotlarni har xil manbalardan – fayllardan, ma'lumotlar bazasidan, elektron jadvallardan, elektron pochta va hokazolardan izlashga majbur. Bundan tashqari, foydalanuvchi ma'lumotlarni turli ko'rinishda – matn, jadval, grafika (rasmlar, chizma, sxema) , video va audio shakllarda oladi. Albatta, turli xil tipdagi ma'lumotlarga kirish uchun aniq tipga – matn va grafik redaktorlar, elektron jadvallar, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari va boshqalarga tegishli ma'lumotlarni «tushunadigan» maxsus izohlar kerak. Foydalanuvchi har kungi ishida kerak bo'ladigan ma'lumotlar tipining ko'pligi izohlarning ham ko'payishiga olib keladi. Maxsus interfeysli va ishlashdagi murakkab qoidali izohlar ko'p. Ammo ular foydalanuvchilarga anchagina muammo tug'diradi. Bunday muammoni samarali yechishga 2 ta shartni bajarish orqali erishish mumkin. Birinchidan, turli xil tipdagi va tabiatli, turli manbalardan olingan ma'lumotlar foydalanuvchiga kelib tushishidan oldin o'zaro shunday mujassamlashadiki, u foydalanuvchining informatsion so'rovlariga maksimal darajada mos keladi hamda qabul qilish uchun eng qulay ko'rinishda taklif etiladi. Ikkinchidan, ma'lumotga kirish uchun foydalanuvchi tayyorlangan informatsiya bilan birgalikda ishlashga imkon beruvchi universal interfeysli bitta dasturdan foydalanadi.

Web texnologiya bu shartlarga to'la mos keladi. Web-server ma'lumotni turli manbalardan olib, uni yagona ko'rinishda foydalanuvchiga taqdim etadigan informatsion kontsentrator vazifasini bajaradi. Universal va tabiiy interfeys bilan ta'minlangan brauzer foydalanuvchiga ma'lumotni uni tabiatidan qat'iy nazar, oson ko'rishga imkon beradi.

Web texnologiyaning integratsion sifatlari korporativ tarmoqlarda qo'llash uchun juda muhim bo'lib hisoblanadi. Gap shundaki, turli tipdagi ma'lumotlar integratsiyalashuvi imkoniyati kompyuter tarmog'ining turli uzellarida joylashgan axborotlarni birlashtirish mexanizmi bilan birgalikda axborotni yaratilish va foydalanishning tabiiy ketma-ketligi bilan mos ravishda to'plash va unga yagona kirishni amalga oshirish uchun imkon yaratadi. Bu bilan axborot yetkazib beruvchi axborotni samarali tayyorlashi va nazorat qilishi mumkin, foydalanuvchi esa kerakli axborotni unga zarur bo'lgan vaqtda qiynalmay topishi mumkin.

WEB - texnologiya nima uchun kuchli integratsion imkoniyatlarga ega ekanligining sababi WEB texnologiya uchun axborotlar bilan ishlash texnologiyasi rivojlanishining 30 yillik davri asos bo'lib xizmat qildi. Aynan ochiq standartlardan foydalanish evaziga ma'lumotlarni brauzerning 1 ta sahifasi (1ta ekran) ga integratsiyalash imkoniyati mavjud.

Axborotning bir butun blokini buzmasdan turib. Turli harakterli va turli manbalardagi ma'lumotlarni ekranda mujassamlashtirish mumkin.

WEB-server va WEB-navigatorlar nafaqat xalqaro masshtabda, balki har bir tashkilot uchun infratuzilmali servis sifatida foydalanilish mumkin va kerak.

WEBdan foydalanuvchilar tarkibidagi o'zgarishlar dinamikasi oxirgi yillarda juda yuqori. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 6 iyun 2000 yildagi « Kompyuterlashtirish to'g'risida»gi qarori chiqqanidan so'ng, WWW ga Oliy O'quv Yurtlari va ish joylaridan kiruvchi kishilar soni (26%dan 50%gacha) ko'paydi. Axolining o'rtacha daromadi oshdi va kompyuter bilan bog'liq bo'lgan kishilar soni oshdi. Bu shundan dalolat beradiki, WWWdan foydalanuvchi yosh mutaxasislar uchun kompyuter oddiy asbobga xamda texnikadan uzoq, ammo yangi texnologiyalar bilan qiziquvchi kishilar uchun ma'lumotnomaga aylandi. AQShda WWWdan ommaviy foydalanuvchilar soni ko'payib ketdi, deyarli har bir kompaniya Internetda o'zining Web-sahifasiga ega bo'lishni kerak deb hisoblaydi.

Foydalanuvchilar xohishlarining bo'linishi shuni ko'rsatadiki, WWW dan foydalanuvchi kishilar bitta maqsad emas, balki ko'p maqsadlarda foydalanishadi.

Umuman tizim arxitekturasida quyidagi komponentlardan tarkib topgan:


- HTML gipermatn belgili tili.
- HTTP gipermatn uzatish protokoli.
- Internetda ma'lumot tipiga spetsifikatsiyalar (Internet Media Types)
- WWW-adresatsiya tizimlari (URL, URN, URI etc.)

WWW uchun dasturlar. WWW uchun dasturiy ta'minotdan foydalanish ko'rsatkichlari. Brauzerlar.

Platformalar buyicha WWW foydalanuvchilarining taqsimlanishi taxminan bozorning operatsion tizimlar orasida taqsimlanishini eslatadi.

Foydalanuvchilarning qaysi navigatoridan foydalanishni hohlashlarining taqsimlanishi.

Bu statistika hozirgi vaqtga taxminan to'g'ri keladi. Bozorda Google Chrome haqiqiy yetakchilik qiladi.



Foydalanuvchilar WEB-sahifa yaratish uchun o'zilarining qiziqishlariga qarab dasturlarni tanlaydi. By MS Front Page, Macromedia Dreamweaver, bloknot va boshqa dasturlar bo'lishi mumkin. Matn muxarrirlaridan o'ncha katta bo'lmagan sahifalar yaratishda foydalanish mumkin, chunki ularning kamchiliklari juda

ko'pdir: loyihalar qo'llab-quvvatlanmaydi, matnlar uchun havola berish qiyin, umuman ishlash juda noqulay. MS Front Pagening asosiy kamchiligi HTML-kodning kattaligi (ortiqchasi ko'p), shuning uchun sahifa katta bo'ladi va yuklanish tezligiga ta'sir qiladi. Sahifalar noto'g'ri chiqadi, shuning uchun sifatli WEB-sahifa yaratish uchun maxsus paketlardan foydalanish tavsiya etiladi. Macromedia Dreamweaver kompaniyasi WEB-saytlar yaratuvchi dasturlar ishlab chiqarish buyicha yetakchi va bu soxada yangiliklar yaratuvchi kompaniya hisoblanadi. Bu kompaniyaning HTML-muxarriri oxirgi versiyasi – WYSIWYG –muxarrirlari kategoriyasiga kiruvchi Dream Weaver 3 bo'lib, bu paket juda ko'p afzalliklarga ega: qulay interfeys, funktsiyalar nastroykasi, katta loyihalarni qo'llab quvvatlash (va Shock Wave texnologiyalarni), FTP orqali fayllarni olish imkoniyati, SSI ni qo'llash va boshqalar.

Bu dasturda foydalanib HTMLni to'liq bilmagan foydalanuvchi ham web sahifalarni yarata oladi.

Lekin Dreamweaverdan WYSIWYG texnologiyasini qo'llovchi boshqa muxarrirlar ancha oldinda, birinchi navbatda juda toza HTML-kod bilan. Keyingi muxarrir –HOME SITE sahifalarni qo'lda yaratish uchun, ya'ni HTML bilimdonlari uchun. Siz HTML-kod ustidan to'liq nazorat qilasiz va sahifangizni manna shu brauzer (MSIE, NN, Opera)da optimallashtishingiz mumkin. HOME SITE asosiy rejimdan iborat: Edit va Design.Design rejimi – WYSIWYG(HTML-kod chikaruvchi) muxarririga uxshash bo'lib, agar begona HTML-kod yuklasangiz, HOME SITE uni o'ziga moslashtirib o'zgartiradi. Edit rejimi sahifacha ustidan to'liq nazorat qilish imkonini beradi. Bunda siz hamma narsa , har bir teganing vazifasini o'zgartirishingiz mumkin. (bunda siz sahifaning har qanday brauzerida ham bir xil kurinadi).

HOME SITening yana bir ajralib turuvchi xususiyati shundaki, bu uning Dream Weaver bilan «skleyka»si. HOME SITEda «Dream Weaver» tugmasi bo'lib, shuningdek uning standart paketiga kira oladi. Dream Weaver ham (HTML kodni tuzatish uchun muxarrir sifatida) HOME SITEga ulanish imkoniga ega. HTML-muxarrirlarining oxirgilaridan bo'lib, EVR soft 1st Page 2000 hisoblanadi.

Muxarrirda bir necha rejimlar: Normal, Easy, Advanced Expert va Hardcore bo'lib, siz o'zingizga mosini tanlab, keyinchalik esa yuqori darajalisiga o'tishingiz mumkin. Yana bir xususiyat – Java Script va DHTMLda katta skriptlar kollektciyasining mavjudligi.

Grafik muxarrir.

Grafikani yaratish va optimallashtirish – murakkab va injiq ishdir. WEB-sahifalarni grafikadan foydalanmagan holda ham yaratish mumkin. Bunda shriftlar, skriptlar va stillar jadvali (CSS) yordamida yaratiladi va bu ham chiroyli bo'ladi. Lekin hujjatning oxirgi ko'rinishi bir necha turli xil omillardan bog'liq bo'ladi, bularga: brauzer oynasining kengligi, brauzerning oldindan tayyorlanganligi, nomi va rangi kiradi. Bundan tashqari hamma skriptlar va stillar ham hamma brauzerlarga to'g'ri kelavermaydi. Agar grafika qo'llangan bo'lsa, sahifadan foydalanuvchi uni qanday qilingan bo'lsa, huddi shunday kuradi.

WEB-grafika bilan ishlashning asosiy murakkabligi shundaki, ko'p xollarda Internet kanallarining o'tkazuvchanlik qobiliyati past va sizning oldingizda grafik faylni qanday qilib kichikroq xajmli, lekin yaxshi sifatli qilish, uni optimallashtirishda qanday dasturlar va usullardan foydalanish muammolari paydo bo'ladi.

Vektorli va rastarli grafik muxarrirlar rasmlarni qayta ishlashda kuchli asbob hisoblanadi. Bu muxarrirlarni kurib chiqishdan oldin vektorli va rastarli rasmlar orasidagi farqni ajratish lozim. Rastarli grafikka setka (rastr) ko'rinishida bo'lib, uning yacheykalari piksellar deb ataladi. Rastarli rasmdagi har bir piksel aniq joy va ranga ega bo'lib, har qanday ob'ekt bo'yalgan piksellar to'plami ko'rinishida ifodalanadi. Bu shuni anglatadiki, foydalanuvchi rastarli rasmlar bilan ishlayotganida u aniq bir ob'ekt ustida emas, balki uni tashkil etuvchi piksellar guruxi ustida ishlaydi.

Vektorli rasmlar vektorlar deb ataluvchi matematik figuralar asosida shakllanadi va rasm ko'rinishida vektorlar parametrlari bilan aniqlanadi. Boshqacha qilib aytganda, vektorli grafika koordinatalari, rangi va boshqa parametrlari bo'lgan egri chiziqlar va biror rang bilan tuldirilgan yopik soxalardan iborat. Bu

soxalarning chegaralari ham egri bo'ladi. Vektorli rasmlar saqlanadigan fayllarda egri chiziqlarning parametrlari va koordinatalari bo'ladi. Vektorli rasmlarni qayta ishlash natijasi asbobning imkoniyatidan bog'liq emas, shuning uchun siz uning parametrlarini (ulcham, rang, shakl va b.) o'zgartirsangiz ham sifatiga ta'sir qilmaydi. Vektorli grafika mayda shrift ulchamli sifrlar ob'ektlar yaratishda yoki logotiplar yaratishda (ular uchun chegaralanmagan masshtablashtirishda ham konturlar aniqligi salanishi muhim).

Grafik muxarrirlar 2 ga bulinadi: rastrli va vektorli. Endi ulardan mashxurlarini kurib chiqamiz. Rastrli grafik muxarrirlari.

Microsoft Paint. Microsoftning operatsion sistemasi standart postavkasiga kiruvchi oddiy muxarrir. Unda oddiy funktsiya (kistochka, qalam, uchirgich va b.) lar to'plami bo'lib, ular orqali har xil rasmlar chizish mumkin. Afsuski, grafikani qayta ishlashda undan foydalanib bo'lmaydi.

Adobe Photoshop – bugungi kunda rastrli grafikani qayta ishlovchi eng kuchli paket. Turli xil filtrlar va effektlar to'plamidan iborat kompleks bo'lib, rastrli rasmlarni modifikatsiya qilishning ko'p sonli imkoniyatlariga ega. Bundan tashqari mustaqil ishlab chikaruvchilar instrumentlariga ulanish imkoniyati mavjud. Paket quyidagilarni, masalan, zararlangan rasmlarni qayta tiklash, tasavvurimizdagi turli xil fantastik kollajlarni yaratish vositalarini taklif qiladi. Umuman bu paket xaqiqatdan ham yuqori potentsialga ega. 5.5 versiyasidan boshlab, paketga Adobe Image Ready (P.5.6) dasturi kiritildi. Bu dastur WEBdagi grafikalarini qayta ishlash buyicha katta imkoniyatlarga ega. (rasmlarni optimallashtirish, animatsiyalangan gifni yaratish, rasmlarni mayda bulaklarga «qirqish» va b.)

Adobe Photoshop yaratuvchilari – faqat texnik mukammallikni emas, balki ijod mustaqilligini ham taklif qiladi.

PhotoPaint-Core 1 Draw paketi grafik muxarrirlardan biri bo'lib, rastrli grafikani qayta ishlash bo'yicha Adobe Photoshop bilan raqobatlasha oladi. Bunda grafikani qayta ishlash uchun muhim bo'lgan turli xil filtrlar, teksturalar instrumentlari mavjud. Ishlashdagi qulaylik, interfeys va filtrlarni qo'yish tezligida farq qiladi.

Painter – muxarrir chizishning real instrumentlari: grafit, mel,moy va boshqalarni emulyatsiya qilish imkoniyatini beradi WEB-sahifa yoki fonli rasmlarni surat ko'rinishida ishlab chiqishda qulaydir. Bu dasturdan foydalangan paytda o'zingizni huddi xaqiqiy rassomday sezasiz.Yana bir qancha muxarrirlar (Microsoft Photo Editor, Microsoft Photo DRAW) mavjud bo'lib, ular oddiy topshiriqlarni bajarish imkonini beradi.

Vektorli grafika muxarrirlari.

Adobe Illustrator – vektorli grafikani yaratish ,qayta ishlash va taxrir qilish imkonini beruvchi paketdir. U Adobe Photoshop muxarriri bilan teng kuchga ega bo'lib; bir xil interfeysga ega, turli filtr va effektlarni ulaydi, turli grafik formatlar, xatto cdr (Corel Draw) va swf (Flash)ni tushunadi.

Corel Draw – vektorli grafikani qayta ishlovchi paketdir. Paket o'zining kuchiga qarab, grafik muxarrirlar Adobe Photoshop va Adobe Illustratoridan qolishmaydi. Vektorli grafikani qayta ishlash bilan bir qatorda rastarli grafikani ham qayta ishlovchi (PhotoPaint) , rasmlarni tassirovkachi, shriftlar muxarriri , teksturalarni tayyorlash va shtrix kodlarni yaratish, shuningdek juda katta rasmlar kolleksiyasi (Corel Gallery) mavjud.

Adobe Streamline – Adobe firmasining yana bir mahsuloti bo'lib, rastarli grafikani vektorliga aylantirishga muljallangan. Bu uncha katta bulmagan, lekin foydali va kuchli mahsulot. Asosan, WEB-sahifani vektorli grafika yordamida yaratayotgan bulsangiz, masalan, Flash texnologiyasida, foydali bo'ladi.

1.2. Web sayt yaratish foydalaniladigan HTML teglari.

HTML (Hyper Text Markup Language) - bu hujjatdagi ma'lumotni Brauzer yordamida, kompyuter ekranida qanday ko'rinishda namoyish etilishini belgilab beruvchi til. Hujjat tayorlashda ma'lumotlarni matn, jadval yoki ro'yxat holida aks ettirish talab etiladi. Ba'zi hollarda, matnning bir qismidagi shriftni semiz, kursiv yoki boshqa hajmda ko'rsatishga to'g'ri keladi. Matn muharririda buning uchun kerakli fragment tanlab olinib, unga nisbatan formatlash qo'llaniladi. HTMLda esa bu narsa teglar yordamida amalga oshiriladi.

Masalan:

<i>Ushbu matn kursiv shaklda ko'rsatiladi</i>

<i> va *</i>* teglar deb ataladi. Hujjatning butun tarkibi teglar yodamida ishlab chiqiladi. Teglar "<" va ">" burchak qavslar bilan ajratilib, ular orasida teg nomi ko'rsatiladi.

Ko'pgina teglar juft holda ishlatilib, ochuvchi *<i>* va yopuvchi *</i>* tegdan iborat bo'ladi. Yopuvchi teg nomi oldida "/" slesh belgisi borligi bilan farqlanadi.

Yakka holda ishlatiladigan teglar ham mavjud bo'lib, ularda yopuvchi teg bo'lmaydi. Masalan, *
* yangi qatorga ko'chirish tegi bo'lib, undan keyin keladigan ma'lumotlar yangi qatordan boshlab joylashadi.

Ba'zi teglar parametrlarga ega bo'lishi mumkin (atribut yoki xossa ham deyiladi). Parametrlar teg nomidan keyin probel qoldirib parametr = "mohiyat" shaklida ko'rsatiladi. Parametrlar bir nechta bo'lsa, probel bilan ajratilgan holda, birma-bir ko'rsatib o'tiladi.

<teg parametr1="mohiyat1" parametr2="mohiyat2">Matn</teg>

Masalan:

<metahttp-equiv="Content-Type"content="text/html; charset=utf-8">

Ushbu misolda *<meta>* tegining http-equiv parametriga Content-Type mohiyati, content parametriga text/html; charset=utf-8 mohiyati berilgan.

teglar ichma-ich joylashtirilishi mumkin. Masalan:

<p> <i>Bu kursiv ko'rinishdagi alohida abzats</i> </p>

teg'larni ichma-ich joylashtirganda, ularning ochilish va yopilish (qavslarni ishlatishdagi kabi) tartibiga rioya etish zarur.

`<p> <i>Matn</p> </i>` - noto'g'ri.

HTML-hujjatlarni ko'rish uchun Web-Brauzerlardan foydalaniladi. Web-Brauzer hujjatni uning tarkibidagi kod asosida formatlab, tegishli shaklga keltirib ko'rsatadi.

HTML formatidagi hujjatlar html yoki htm kengaytmasiga ega bo'ladi. HTML-hujjatlar tayorlash uchun xohlagan matn muharriridan foydalanish mumkin. Kod yozishga mo'ljallangan maxsus dasturlar ham bo'lib, ularda teg, parametr va mohiyatlar har xil ranglarda ko'rsatilish bilan birga, hujjatga element joylashtirish va shunga o'xshash bir qancha funksiyalar avtomatlashtirilgan bo'ladi.

Siz o'qiyotgan bu satrlar Notepad++ matn muharririda terilgan bo'lib, bundan keyin kod yozish haqida gap ketganda Notepad++ni nazarda tutamiz. Notepad++ biroz kamtarin ko'rinishiga qaramasdan, kod yozish uchun anchagina qulay dastur. HTML-hujjatning Web-Brauzer oynasidagi tegishli shaklga keltirilgan ko'rinishi Web-sahifa deyiladi. HTML-hujjatdan farqli ravishda, Web-sahifalar tarkibida matndan tashqari grafika, video, audio materiallar ham bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, Web-sahifa bir nechta HTML-hujjatlar asosida hosil qilinishi mumkin.

Ma'lumotlarda tarjimaviy yoki boshqa sub'ektiv xatoliklar bo'lishi mumkin.

Oddiy HTML-hujjat

Notepad++ dasturini ochib, unda quyidagi kodni teramiz.

```
<!DOCTYPE html>
<html>
<head>
<title>Bosh sarlavha</title>
<metahttp-equiv="Content-Type"content="text/html; charset=utf-8">
</head>
<body>
<p>
```



```
<strong>Ushbu matn semiz formatda ko'rsatiladi</strong>
</p>
</body>
</html>
```

Ushbu matnni HTML formatida, misol.html nomi bilan kompyuter xotirasida "UTF-8 (без BOM)" kodlash usulida saqlaymiz. Buning uchun Notepad++ ning "Кодировки" menusedan "Кодировать в UTF-8 (без BOM)" punktini belgilaymiz va "Файл" menusedan "Сохранить как" punktini tanlaymiz. Ochilgan oynada Имя файла degan joyda misol.html deb yozamiz. Kerakli direktoriyani tanlab, Сохранить tugmasini bosamiz.

Xotirada saqlangan faylni Web-Brauzer (Internet Explorer, Firefox, Chrome yoki shunga o'xshash)da ochamiz. Agar hammasini to'g'ri bajargan bo'lsak, Brauzer oynasida "Ushbu matn semiz formatda ko'rsatiladi" yozuvini ko'ramiz. <title> tegidagi "Bosh sarlavha" esa, Brauzer oynasida emas, balki Brauzerning tepa qismidagi sarlavhada ko'rinadi.

Notepad++ ga o'tib, <title> tegidagi yozuvni quyidagicha o'zgartiramiz. <title>Sayt yaratishni o'rganamiz</title> Abzatsni belgilovchi <p> teglari orasiga yana bir qator qo'shamiz, birinchi qator oxiriga esa
 tegini kiritamiz.

Endi Notepad++ dagi HTML-hujjatimiz quyidagi ko'rinishga keldi.

```
<!DOCTYPE html>
<html>
<head>
<title>Sayt yaratishni o'rganamiz</title>
<meta http-equiv="Content-Type" content="text/html; charset=utf-8">
</head>
<body>
<p>
<strong>Ushbu matn semiz formatda ko'rsatiladi</strong> <br>
<i>Ushbu matn kursiv shaklda ko'rsatiladi</i>
</p>
```

</body>

</html>

Faylni xotirada saqlab, Brauzerga o'tib sahifani yangilaymiz. Buning uchun Brauzerdagi "Обновить" tugmasini yoki klaviaturadan <F5> tugmasini bosamiz. Agar hammasini to'g'ri bajargan bo'lsak, Brauzerda quyidagi ma'lumotlarni ko'ramiz.

Demak, Web-sahifaga o'zgartirish kiritish uchun, HTML-hujjatni matn muharriri (Notepad++)da ochib, undagi kodga tegishli o'zgartirishlarni kiritib, xotirada saqlaymiz. Brauzerga o'tib, sahifani yangilaymiz va o'zgarishlarning vizual natijasini ko'ramiz.

HTML-hujjat bilan ishlashni boshlaganda, tegishli .html faylni tanlab, sichqonchaning o'ng tugmasini bosib, menyuning "Открытcпомощью..." punktidan bir marta Notepad++ dasturi orqali, ikkinchi marta xuddi shunday usulda uni Brauzerda ochib bir paytning o'zida faylni matn holida va uning Web-sahifa holatidagi ko'rinishini nazorat qilib ishlash mumkin.

Hujjatning tarkibiy tuzilishi

Har qanday HTML-hujjat quyidagicha tarkibdan iborat bo'ladi.

<!DOCTYPE html> <!-- Hujjat formatini e'lon qilish -->

<html>

<head>

<!-- Hujjat haqida texnik ma'lumotlar - Brauzer oynasida ko'rinmaydi -->

</head>

<body>

<!-- Hujjatning asosiy qismi ("jismi")-->

</body>

</html>

HTML-hujjatning barcha matni <html>ba</html> teglari orasiga joylashadi. Bu teglar butun hujjat uchun konteyner bo'lib hisoblanadi va o'z navbatida ikki qismga, HEAD va BODY sohalariga bo'linadi.

Odatda HTML-hujjatning birinchi qatorida Doktayp joylashtiriladi va u Brauzerga hujjat tipi haqida ma'lumot beradi. Bundan tashqari hujjat kodining validligi (standartga to'g'ri kelishi)ni www.w3.org sayti yordamida tekshirganda, qaysi standartni qo'llash kerakligi Doktayp orqali aniqlanadi.

HEAD bo'limi - hujjatning "bosh" qismi

HEAD bo'limidagi ma'lumotlar Brauzer oynasida ko'rsatilmaydi. Faqatgina <title> tegida joylashtirilgan sarlavha Brauzerning tepa qismida va (yoki) vkladka sarlavhasida ko'rsatiladi.

HEAD bo'limida sayt sarlavhasi, uning mazmuni va qidiruv mashinalari foydalanishi uchun kalit so'zlar, kodlash usuli hamda sahifa uchun kerakli boshqa hujjatlar bilan bog'lanish manzillari to'g'risidagi ma'lumotlar joylashtiriladi. Bu bo'limda ishlatiladigan asosiy teglardan biri <title> tegi bo'lib, unda sayt mazmuniga mos keladigan, 60 belgidan ortiq bo'lmagan sarlavha joylashtiriladi.

<title>Sahifa sarlavhasi</title>

Yakka ishlatiladigan <meta> tegi yordamida hujjatning tipi, kodirovkasi, sahifa mazmuni bilan bog'liq bo'lgan, qidiruv mashinalariga mo'ljallangan kalit so'zlar kiritilishi mumkin.

<metahttp-equiv="Content-Type"content="text/html; charset=utf-8">

<meta name="description"lang="ru"content="Tavsifiy jumlar">

<meta name="keywords"lang="ru"content="Kalit so'zlar">

Bundan tashqari <meta> tegi yordamida, qidiruv mashinalarining saytni indekslashiga ruxsat berish yoki ta'qiqlab qo'yish mumkin.

<metaname="robots"content="<Indeksatsiya>, <linklar>">

content parametri quyidagi mohiyatlarni qabul qilishi mumkin:

- ▷ index - indekslashga ruxsat beriladi;
- ▷ noindex - indekslash ta'qiqlanadi;
- ▷ follow - sahifada ko'rsatilgan linklar bo'yicha o'tish mumkin;
- ▷ nofollow - linklar bo'yicha o'tish ta'qiqlanadi;
- ▷ all - index plus follow;

▷ none - noindex plus nofollow.

Misollar: Indekslashga ruxsat berilgan va linklar bo'yicha o'tish mumkin:

```
<metaname="robots"content="index, follow">
```

Indekslashga ruxsat berilgan va linklar bo'yicha o'tish ta'qiqlanadi:

```
<metaname="robots"content="index, nofollow">
```

Indekslash ham linklar bo'yicha o'tish ham ta'qiqlanadi:

```
<metaname="robots"content="noindex, nofollow">
```

Sahifani ma'lum bir vaqt oralig'ida avtomatik tarzda yangilanib turishi uchun
<meta>тегинингrefresh xossasidan foydalanish mumkin.

```
<metahttp-equiv="refresh"content="60">
```

Bu misolda Brauzerda ochilgan sahifa har 60 soniyada yangidan yuklanib turadi. Zaruriyat tug'lsa, saytga kiruvchini birdaniga boshqa sahifaga (saytga) yo'naltirish ham mumkin. Buning uchun url parametridan foydalaniladi.

```
<metahttp-equiv="refresh"content="0; url=http://ziyonet.uz/">
```

BODY bo'limi - hujjatning asosiy qismi

Bu bo'limda Brauzer oynasida aks etadigan barcha ma'lumotlar joylashadi.
<body> tegi quyidagi parametrlarga ega bulishi mumkin:

► bgcolor Web-sahifaning fon rangini belgilaydi. Rang o'n oltilik sanoq sistemasidagi raqamlar bilan ifoda etiladi. Barcha ranglar uch xil, ya'ni qizil, yashil va ko'k ranglarning aralashmasidan hosil qilinadi.

Tarkibdagi har bir rangning darajasi 00 dan FF gacha bo'lishi mumkin. (Bu o'nlik sanoq sistemasidagi 00 dan 255 gacha to'g'ri keladi). Uch xil rang darajasi RGB (red-qizil, green-yashil va blue-ko'k) tartibida birlashtirilib, oldiga "#" belgisi qo'yiladi. Masalan, #FF0000 - qizil rangni, #00FF00 - yashil rangni, #FFFF00 - sariq (qizil va yashil aralashmasi) ni hosil qiladi.

► background URL-manzilni ko'rsatish orqali fon surati joylashtirish imkonini beradi.

Misol tariqasida, <body> tegi quyidagicha bo'lishi mumkin:

```
<!DOCTYPE html>
```

```
<html>
```

```

<head>
<title>Sayt yaratishni o'rganamiz</title>
<metahttp-equiv="Content-Type"content="text/html; charset=utf-8">
</head>
<bodybgcolor="#fff6f6"text="#000000">
  Hujjat matni
</body>
</html>

```

Ushbu kodni Notepad++ orqali .html kengaytmasi bilan xotirada saqlab, so'ngra uni Brauzerda ochib vizual natijasini ko'rishingiz va ranglarning tarkibiy miqdorini o'zgartirib (Notepad++ da), qayta saqlab Brauzer oynasini yangilab tajriba o'tkazishingiz mumkin. Biz ko'rib o'tgan, sahifani formatlash bilan bog'liq parametrlarning bir qismi hozirgi kunda eskirgan hisoblanadi. Formatlash bilan bog'liq amallar (rangi, shrifti, moyilligi va boshqalar) CSS da bajariladi. Shunday bo'lsada, HTML-hujjat bilan ishlashni mohiyatan to'liqroq tushunish va keyinroq CSS ni o'rganish osonroq bo'lishi uchun bu narsalarni bilish foydadan xoli bo'lmaydi.

Alohida belgilarni formatlash

E'tibor bergan bo'lsangiz, Brauzer oynasida teglarning o'zi ko'rinmaydi. Ular ma'lumotlarni ko'rsatishni belgilab beradi. Teglarni ekranda ko'rsatish uchun maxsus belgilarning HTML-ekvivalentlaridan foydalaniladi. Masalan,

```
<title>Ba</title>
```

teglari orasida sarlavha joylashtiriladi.

degan yozuvni Brauzerda ko'rinishi uchun uni quyidagicha yozish kerak bo'ladi:

```
&lt;title&gt; ba&lt;/title&gt;
```

teglari orasida sarlavha joylashtiriladi.

Bu misolda biz "<" belgisini < ga va ">" belgisini > ga almashtirdik.

Quyidagi HTML-ekvivalentlar tez-tez ishlatib turiladi:

Matnning bir qismini ajratib ko'rsatish

Teg matnni semiz shrift bilan ajratib ko'rsatadi:

Semiz shriftli matn

**** tegi o'rniga mantiqiy formatlash tegi **** ishlatilishi mumkin:
Semiz shriftli matn

<i> tegi matnni kursiv holda ajratib ko'rsatadi:

<i>Matn kursiv holda ko'rsatiladi</i>

<i> tegi o'rniga mantiqiy formatlash tegi ** ishlatilishi mumkin:
Matn kursiv holda ko'rsatiladi

Yuqori va quyi indekslar hosil qilish

<sub> tegi matnni qator chizig'idan pastroqqa tushirib, razmerini kichiklashtiradi. Undan quyi indeks hosil qilish uchun foydalaniladi, masalan H₂O:

Suvning formulasi H₂O (H₂O)

<sup> tegi matnni qator chizig'idan yuqoriga ko'tarib, razmerini kichiklashtiradi. Undan yuqori indeks hosil qilish uchun foydalaniladi, masalan m³:

Bir tonna suvning hajmi — 1 m³ bo'ladi. (1 m³)

HTML-hujjatdagi Kod	Brauzerdagi Natijasi
---------------------	----------------------

Suvning formulasi: H ₂ O	Suvning formulasi: H ₂ O
-------------------------------------	-------------------------------------

1 t. suvning hajmi — 1 m ³ bo'ladi	1 t. suvning hajmi — 1 m ³ bo'ladi
---	---

Matn shriftini belgilash

**** tegi shriftning razmeri, tipi va rangini belgilaydi. U quyidagi parametrlarga ega:

► face - shrift tipini ko'rsatib beradi:

<fontface="Verdana">Matn

Vergul bilan ajratgan holda bir nechta tipni ham ko'rsatish mumkin. Bu holda Brauzer birinchi tip mabodo sistemada o'rnatilmagan bo'lsa, keyingi tipga o'tadi. Agar hech bir shrift topilmasa, Brauzer sozlashlarida ko'rsatilgan "jimlikdagi" shrift ishlatiladi.

► size - 1 dan 7 gacha bo'lgan shartli birliklarda shrift razmerini belgilaydi. Odatda Brauzerning "jimlikdagi" shrift razmeri 3 ga tenglashtiriladi. "+" va "-" belgilarini qo'llab, shriftni baza razmeriga nisbatan kattalashtirish va kichiklashtirish ham mumkin.

► color -shriftning rangini ko'rsatadi. Ranglar bgcolor parametridagi kabi ishlatiladi.

HTML-hujjatdagi Kod	Brauzerdagi Natijasi
<code><fontcolor = "#339966">Yashil rangdagi Matn</code>	Yashil rangdagi Matn
<code><fontcolor = "#FF00FF">Pushti rangdagi Matn</code>	Pushti rangdagi Matn
<code><fontcolor = "red">Qizil rangdagi Matn</code>	Qizil rangdagi Matn

Raqamlar o'rniga ranglar nomlari ham ishlatilishi mumkin.

Matnni formatlashda boshqa teglar ham ishlatiladi.

`<big>` tegi matnni kattalashtirib ko'rsatadi.

`<small>` tegi matnni kichiklashtirib ko'rsatadi.

`<tt>` tegi Matn belgilarini bir xil kenglikda joylashtirib ko'rsatadi.

Hujjatni formatlash

Matndagi ahamiyatli fragmentlarni ajratib ko'rsatishda mantiqiy formatlash teglari ishlatilishi mumkin. Bunday teglarning nomlari ma'lum bir ma'noga ega bo'ladi. Ulardan ikkitasi, `<strong>` va `<em>` teglari oldinroq ko'rib chiqildi. Asosiy mantiqiy formatlash teglarini sanab o'tamiz:

`<cite>Matn...</cite>` — sitatalar va asar nomlarini belgilashda ishlatiladi;
`<code>Matn...</code>` — dasturiy kod fragmentini belgilashda ishlatiladi;
`<abbr>Matn...</abbr>` — abbreviaturalar belgilanadi;
`<kbd>Matn...</kbd>` — foydalanuvchi tomonidan klaviatura orqali kiritilgan matn

belgilanadi;

`<q>Matn...</q>` — qisqa sitatalarda ishlatiladi;

`<samp>Matn...</samp>` — dastur natijasini ko'rsatishda ishlatiladi;

`<var>Matn...</var>` — o'zgaruvchilar nomi belgilanadi.

Ushbu teglarni har xil Brauzerlar har xil vizuallashtirishi mumkin. Notepad++ va Brauzerda ixtiyoriy nomlangan test.html faylini bir vaqtda ochib, tajriba o'tkazib ko'rishingiz mumkin.

HTML-hujjatdagi Kod	Brauzerdagi Natijasi
<code><cite>Sitatarlar va asar nomlari</cite></code>	Sitatarlar va asar nomlari
<code><code>Dasturiy kod fragmenti</code></code>	Dasturiy kod fragmenti
<code><abbr>Abbreviaturalar</abbr></code>	Abbreviaturalar
<code><kbd>Foydalanuvchi klaviaturadan kiritgan</kbd></code>	Foydalanuvchi klaviaturadan kiritgan
<code><q>Qisqa sitata</q></code>	Qisqa sitata
<code><samp>Dastur natijasi</samp></code>	Dastur natijasi
<code><var>O`zgaruvchilar nomi</var></code>	O`zgaruvchilar nomi

HTML-hujjatga Note padda o'zgarish kiritib, uni xotirada saqlaymiz. Xuddi shu fayl ochilgan Brauzerga o'tib, oynani yangilaymiz. Brauzer oynasida hujjatga kiritilgan yangiliklarning visual natijasi namoyon bo'ladi.

Sharhlash tegi

`<!--va-->` teglari orasida joylashgan matn Brauzerda ko'rinmaydi.

`<!-- HTML-hujjatdagi bu matn Brauzerda ko'rinmaydi -->`

Yangi qatorga qo'chirish

`<br>` tegi o'zidan keyingi matnni yangi qatorga ko'chiradi.

HTML-hujjatga quydagi tartibda matn kiritsak:

`<p>`

1-qator

2-qator

3-qator

</p>

Qatorlar ketma-ket kelishini ta`minlash uchun
 tegi ishlatiladi.

<p>

1-qator

2-qator

3-qator

</p>

Matnni hujjat kodidagi holatida ekranga chiqarish uchun <pre> tegidan foydalanish mumkin. Bu holatda Brauzer <pre> va </pre> teglari orasidagi matnni o'z holatida ko'rsatadi, ortiqcha probelli belgilar qisqartirilmaydi.

<pre>

1-qator

2-qator

3-qator

</pre>

Ro'yxatlar

Ro'yxatlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- belgili (markerlangan) ro'yxat;
- nomerlangan (tartiblangan) ro'yxat;
- izohli ro'yxat.

Bu variantlarning har birini alohida ko'rib chiqamiz.

Belgili ro'yxat

Belgili ro'yxat va teglari orasiga joylashtiriladi. Ro'yxatning har bir punkti esa va teglari ichiga joylashtiriladi. Uning strukturasi quyidagicha bo'ladi.

Birinchi punkt

Ikkinchi punkt

Uchinchi punkt

 tegi type parametriga ega bo'lib, uning mohiyati har bir punkt oldiga qanday shakldagi belgi qo'yilishini ko'rsatib beradi. Bu mohiyatlar quyidagilardir:

- ▷ disc — doira shaklidagi belgi (ichi bo'yalgan);
- ▷ circle — aylana shaklidagi belgi (ichi bo'yalmagan);
- ▷ square — kvadrat shaklidagi ichi bo'yalgan belgi.

HTML-hujjatdagi Kod	Brauzerdagi Natijasi
<ul type="disc">	
Birinci punkt	Birinci punkt
Ikkinchi punkt	Ikkinchi punkt
Uchinchi punkt	Uchinchi punkt
<ul type="circle">	
Birinci punkt	Birinci punkt
Ikkinchi punkt	Ikkinchi punkt
Uchinchi punkt	Uchinchi punkt
<ul type="square">	
Birinci punkt	Birinci punkt
Ikkinchi punkt	Ikkinchi punkt
Uchinchi punkt	Uchinchi punkt

Nomerlangan ro'yxat

Nomerlangan ro'yxat va teglari orasiga joylashtiriladi. Ro'yxatning har bir punkti esa va teglari ichiga joylashtiriladi. Uning strukturasi quyidagicha bo'ladi.

Birinci punkt

Ikkinchi punkt

Uchinchi punkt

 tegi ikkita parametrga ega. Ulardan birinchisi type - nomerlash formatini belgilab beradi.

Stillar kaskad jadvali (CSS — Cascading Style Sheets) HTMLning Web-sahifani formatlash imkoniyatlarini juda sezilarli darajada oshiradi. Stillarni qo'llash bilan, Web-sahifa elementlarining tashqi ko'rinishini to'liq nazorat qilish va boshqarish mumkin.

Misol:

<spanstyle="font-size: 16px">16px shriftli matn

Bu yerda font-size Atribut va 16px uning mohiyati (qiymati) deyiladi.

Stillarni HTML-hujjatga qo'llashning quyidagi usullari mavjud:

- HTML teg ichida joylashtirish;
- HTML-hujjatning HEAD qismida <style> va </style> teglari orasida joylashtirish;
- Alohida stillar fayli yaratib, <link> tegi yordamida HTML-hujjatga bog'lash.

Tegni o'zida stil joylashtirish

<style> parametri yordamida hohlagan tegga stil joylashtirish mumkin. Agar stil bir necha atributlarga ega bo'lsa, ular nuqtali vergul bilan ajratib ko'rsatiladi. Biror atributning mohiyati qo'shtirnoq talab qilsa (bir necha so'zdan iborat bo'lsa), jumla apostrofga olinadi.

<spanstyle="font-size: 16px; color: red">16px shriftli, qizil rangli matn

<spanstyle="font-size: 16px; color: brown; font-family: 'Times New Roman'">16px Times New Roman shriftli, jigarrangli matn

16px shriftli, qizil rangli matn

16px Times New Roman shriftli, jigarrangli matn

Alohida fayl tarzidagi stillar jadvali

Stillar fayli HTML-hujjatga, HEAD bo'limida joylashtiriladigan link tegi yordamida biriktiriladi. Bunda href parametrida faylning absolyut yoki nisbiy

URL-manzili, rel parametrida esa uning stillar jadvali ekanligini anglatuvchi stylesheet mohiyati ko'rsatiladi.

Misol: style.css deb nomlangan stillar jadvali faylini HTML-hujjatga biriktirish: (Bu yerda HTML-hujjat bilan css fayl bir papkada).

```
<linkhref="style.css"rel="stylesheet"type="text/css">
```

Selektorlar

Selektorlar - belgilangan stillarning qaysi teglarga nisbatan va qanday holatlarda qo'llanilishini aniqlab beradi.

Oldin aytib o'tganimizdek, stil belgilash tartibi quyidagicha bo'ladi:

Selektor {atribut1:mohiyat1;atribut2:mohiyat2; ...; atributN:mohiyatN;}

Selektorlar turlarini ko'rib chiqamiz:

⇒ * - Belgilangan stillar barcha teglarga tegishli bo'ladi:

* { margin:0; padding:0 } <!-- Barcha ichki va tashqi chekinishlar olib tashlanadi-->

⇒ Teg selektor - teg nomlari ishlatiladi va belgilangan stillar shu nomdagi teglarga tegishli bo'ladi:

font { font-size:12pt;color:green;font-family:"Times New Roman" }

⇒ Klass selektori - shu klass qo'llanilgan teglarga tegishli bo'ladi, HTML-hujjatda qaysi teglarda va necha marta ishlatilishi cheklanmaydi. CSS da:

.class1 { font-size:13pt;color:brown;font-family:"Corier New" }

HTML da:

<pclass="class1">class1 stili qo'llanilgan abzatsdagi matn</p>

Natija:

class1 stili qo'llanilgan abzatsdagi matn

⇒ #Identifikator selektor - shunday identifikatorli tegga tegishli bo'ladi. Identifikator (id) nomi unikallik talab etadi, ya'ni bir hujjatda bir nom qayta

takrorlanmaydi:

CSS da:

```
#id1 { color:#ee6633; }
```

HTML da:

```
<pid="id1">id1 stili qo'llanilgan abzatsdagi matn</p>
```

HTML da:

```
<h2>h2                                dagi                                sarlavha</h2>
```

```
<h3>h3 dagi sarlavha</h3>
```

Natija:

h2 dagi sarlavha

h3 dagi sarlavha

Quyidagi misolda stillar div tegi ichida joylashgan, ya`ni unga nisbatan avlod element hisoblangan a elementiga ta`sir etadi va nechanchi darajadagi avlod bo'lishi ahamiyatga ega emas. div tegi ichida joylashmagan a elementi esa bu stillarni qabul qilmaydi.

CSS da:

```
div a { color:#cc0066; } /* Bu ochiq jigarrang */
```

HTML da:

```
<div>    <ahref="link1.html">Giperbog'lanish-1</a>    </div>    <!--    Stil  
qo'llaniladi                                -->
```

```
<p> <ahref="link2.html">Giperbog'lanish-2</a> </p> <!-- Jimlikdagi stil, chunki  
a div ga nisbatan avlod element emas -->
```

Natija:

[Giperbog'lanish-1](#)

[Giperbog'lanish-2](#) (Jimlikdagi stil)

⇒ Selektor1 > Selektor2 - Bu tartibda, stillar "Selektor1" ga nisbatan birinchi darajali avlod bo'lgan "Selektor2" elementiga tegishli bo'ladi.

CSS da:

```
div > a { color:#cc0066; }
```

HTML da:

```
<div>                <ahref="link1.html">Giperbog'lanish-3</a>                </div>
<!--                Stil                qo'llaniladi                -->
<div>    <p>    <ahref="link2.html">Giperbog'lanish-4</a>    </p>    </div>
<!-- Jimlikdagi stil, chunki a element div uchun 1-darajali avlod emas-->
```

Natija:

[Giperbog'lanish-3](#)

[Giperbog'lanish-4](#)

⇒ Selektor1 + Selektor2 - Bu tartib Selektor2 elementiga, u Selektor1 dan keyin keladigan yon qo'shni bo'lgan holatda ta'sir etadi.

CSS da:

```
div + a { color:#cc0066; }
```

HTML da:

```
<div>Matn</div>                <ahref="link5.html">Giperbog'lanish-5</a>
<!--                Stil                qo'llaniladi                -->
<div>Matn</div>    <span>Matn</span>    <ahref="link6.html">Giperbog'lanish-
6</a>
<!-- Jimlikdagi stil, chunki a element div uchun yon qo'shni emas-->
```

Natija:

Matn [Giperbog'lanish-5](#)

Matn Matn [Giperbog'lanish-6](#)

```
body { margin-bottom:5%; }
```

► margin atributi yordamida barcha tomonlar bo'yicha chekinishlarni quyidagi tartib bo'yicha bir martada ko'rsatish mumkin:

```
margin: <top> <right> <bottom> <left>
```

Masalan:

```
body { margin:10px 5px 10px 20px; }
```

- Chap va o'ng tomonlar qiymati teng bo'lgan holatda bitta ko'rsatkichni qisqartirish mumkin.

Masalan:

```
body { margin:15px 20px 10px 20px; }
```

bilan

```
body { margin:15px 20px 10px; }
```

ikkalasi bir xil natija beradi. Brauzer 20px ni chap va o'ng tomonlarga qo'llaydi.

- Agarda shunday holatda yuqori va quyi ko'rsatkichlar ham teng bo'lsa, ulardan birini qisqartirish mumkin.

Masalan:

```
body { margin:10px 20px 10px; }
```

bilan

```
body { margin:10px 20px; }
```

ikkalasi bir xil natija beradi. Brauzer 10px ni yuqori va quyiga, 20px ni esa chap va o'ng tomonlarga qo'llaydi.

- To'rtala tomon qiymatlari bir xil bo'lganda, uni bitta ko'rsatkich bilan ifodalash mumkin.

```
body { margin:10px; }
```

Bu holatda Brauzer 10px tashqi chekinishni barcha tomonlarga qo'llaydi.

- Qisqartirishlarni faqat oxiridan boshlab amalga oshirilishi mumkin.

```
body { margin:10px 15px 10px 20px; }
```

Yuqoridagi misolda yozuv qisqartirilmaydi, chunki oxirgi 20px ni qisqartirib bo'lmaydi.

- Quyidagi kod bilan barcha tashqi chekinishlarni bekor qilish mumkin:

```
body { margin:0; }
```

Eslatma: Qator hosil qiluvchi elementlarda ("span", "b", "i" ...) tepa va pastki margin ishlamaydi.

Blok hosil qiluvchi elementlarda ("div", "p", "h1"...) barcha ichki va tashqi chekinishlar ishlatiladi. Biroq bu holatda ham vertikal qo'shni bloklardagi tashqi

chekinish (margin)da o'ziga xoslik mavjud bo'lib, tepadagi blokning quyi "margin"i, undan pastdagi blokning tepa "margin"i bilan chegaralashmaydi. "margin"lardan biri ikkinchisining sohasiga kirib ketadi. Qaysi bir "margin" katta bo'lsa, shu masofa saqlanadi.

```
td { padding-right:10px; }
```

► padding-top - yuqori chegaradan chekinish.

```
td { padding-top:10mm; }
```

► padding-bottom - quyi chegaradan chekinish.

```
td { padding-bottom:20px; }
```

► padding atributi yordamida barcha tomonlar bo'yicha chekinishlarni quyidagi tartib bo'yicha bir martada ko'rsatish mumkin:

II BOB.PHP va WordPressdan foydalanib web sayt yaratish.

2.1. Web saytning imkoniyatlarini oshirishda PHP tilining o'rni.

PHP/FI 1995 yilda Rasmus Lerdorf tomonidan o'zining online-rezyumesiga murojaatni kuzatish uchun Perl-scriptlar sodda to'plami sifatida yaratildi.

U bu scriptlar to'plamini 'Personal Contents Page Tools' deb atadi. Katta funktsionallik talab qilingani uchun, Rasmus ma'lumotlar bazasi bilan ishlash imkoniga ega bo'lgan C kengaytirilgan realizatsiyasini yaratdi va foydalanuvchilarga sodda dinamik Web-ilovalar yaratish imkonini berdi. Rasmus har bir foydalanuvchi kengaytirish va o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun PHP/FI kodini keng ommaga e'lon qildi.

PHP/FI, Personal Contents Page / Forms Interpreter, xozirgi PHP asosiy funktsionalligiga ega edi. U Perl-kabi o'zgaruvchilar, forma o'zgaruvchilari avtomatik interpretatsiyasi va HTML ga qo'llangan sintaksisga ega edi. Sintaksis o'zi Perl ni eslatardi, faqat cheklangan, soddalashtirilgan va to'la bo'lmagan.

1997 yilda PHP/FI 2.0, C-realizatsiya ikkinchi versiyasi, butun dunyo bo'yicha bir necha ming muxlislarga ega bo'lib, taxminan 50,000 domenlarga o'rnatilgan edi. Bu hamma Internet domenlarning 1% tashkil qilar edi. Ko'p odamlar o'zlarining kod bloklarini bu loyiha uchun taklif qilganlari uchun, u bir kishining loyihasi bo'lmay qoldi.

PHP/FI 2.0 rasmiy ravishda faqat 1997 yil noyabrida chiqarildi. Ungacha u asosan beta-relizlar shaklida mavjud edi. SHundan so'ng ko'p o'tmasdan birinchi alpha PHP 3.0 paydo bo'ldi.

PHP 3

PHP 3.0 bugungi PHP ga o'xshagan birinchi versiya edi. Uni Andi Gutmans va Zeev Suraski 1997 yilda to'la qaytadan yozilgan til sifatida yaratdilar, chunki ular PHP/FI 2.0 tilini o'zlarining eCommerce-ilovalarini yaratish uchun etarli imkoniyatga ega emas deb topdilar. Kuchlarni birlashtirish uchun, Andi, Rasmus va Zeev PHP 3.0 ni PHP/FI 2.0 rasmiy vorisi sifatida yaratdilar va e'lon qildilar. Natijada PHP/FI 2.0 rivojlanishi to'xtadi.

